

KORXONALARDA ICHKI NAZORAT VA AUDIT KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MOLİYAVIY NATIJALARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH UCHUN MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH

Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li

Urganch davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

javoxir22282@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda ichki nazorat va audit tizimi ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalarni ekonometrik modellash tirish uchun empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ichki nazorat va audit bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlar aniqlanib, ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini baholashda foydalaniladigan axborot bazasini yaratish metodologiyasi ishlab chiqilgan. Maqolada moliyaviy hisobotlar, ichki audit hujjatlari va nazorat indikatorlari asosida ma'lumotlarni tanlash, tizimlashtirish va ekonometrik tahlilga tayyorlash bosqichlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ichki nazorat, ichki audit, moliyaviy natijalar, ekonometrik modellash tirish, ma'lumotlar bazasi, empirik ma'lumotlar, korxona moliyasi.

Аннотация . В статье рассматриваются вопросы формирования эмпирической базы данных для эконометрического моделирования финансовых результатов предприятий на основе показателей внутреннего контроля и аудита. В ходе исследования определены основные индикаторы системы внутреннего контроля и аудита, а также разработана методология создания информационной базы для оценки их влияния на финансовые результаты. В статье обоснованы этапы отбора, систематизации и подготовки данных бухгалтерской отчетности и материалов внутреннего аудита для проведения эконометрического анализа. Полученные результаты имеют практическое значение для повышения эффективности финансового управления и совершенствования процесса принятия управленческих решений на предприятиях.

Ключевые слова: внутренний контроль, внутренний аудит, финансовые результаты, эконометрическое моделирование, база данных, эмпирические данные, финансы предприятия.

Abstract. This article examines the issues of creating an empirical database for econometric modeling of financial performance based on internal control and audit indicators in enterprises. The study identifies key indicators of internal control and audit systems and develops a methodology for forming an information base to assess their impact on financial results. The stages of data selection, systematization, and

preparation of financial statements and internal audit materials for econometric analysis are substantiated. The research findings are of practical importance for improving financial management efficiency and enhancing managerial decision-making processes in enterprises.

Keywords: *internal control, internal audit, financial performance, econometric modeling, database, empirical data, corporate finance.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi, moliyaviy natijalarining oshib borishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ichki nazorat va audit tizimining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxona moliyaviy boshqaruvining sifatli tashkil etilishi, avvalo, moliyaviy natijalarning ishonchli, to'liq va tizimli axborotlar asosida tahlil qilinishiga bog'liq bo'lib, bunda ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosiy axborot manbai hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab korxonalarda ichki nazorat va audit tizimi mavjud bo'lishiga qaramasdan, ushbu tizimdan olinadigan ma'lumotlardan moliyaviy natijalarni chuqur iqtisodiy va ekonometrik tahlil qilishda yetarli darajada foydalanilmayapti. Bu holat moliyaviy natijalarning shakllanish omillarini aniq aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini baholash va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalarni ekonometrik modellashtirish uchun empirik ma'lumotlar bazasini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash, ularning ta'sir darajasini aniqlash va prognozlash imkonini beradi. Biroq ekonometrik tahlilning ishonchliligi va natijadorligi, eng avvalo, foydalaniladigan ma'lumotlar bazasining sifati, to'liqligi va tizimlashtirilganligiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ichki nazorat va audit tizimiga oid ko'rsatkichlarni yagona axborot bazasida jamlash va ularni ekonometrik modellashtirish talablariga moslashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi korxonalarda ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalarni ekonometrik modellashtirish uchun zarur bo'lgan empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarini tanlash, ularni tizimlashtirish hamda ekonometrik tahlilga tayyorlash bosqichlari asoslab beriladi. Olingan natijalar korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Korxonalarda ichki nazorat va audit tizimini rivojlantirish, ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini baholash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, ichki nazorat va audit korxona moliyaviy boshqaruvining ajralmas elementi sifatida qaralib, moliyaviy intizomni mustahkamlash, xatolik va

suiiste'mollarning oldini olish hamda moliyaviy natijalarning ishonchliligini ta'minlashda muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi [1]. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ichki audit tizimining korxona faoliyati samaradorligiga ta'siri, audit axborotlarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o'rni alohida o'rganilgan. Jumladan, X. Pardaev va B. Jo'raevlar ichki auditni moliyaviy natijalarni boshqarishning axborot manbai sifatida talqin qilib, uning natijalari asosida xarajatlar va daromadlar ustidan nazoratni kuchaytirish mumkinligini asoslab bergan [2]. Iqtisodiy tahlil va moliyaviy natijalarni baholash masalalarida ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanishning ahamiyati bir qator ilmiy ishlarida yoritilgan. A. Vahobov va Sh. Ibragimov tadqiqotlarida moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholashda regressiya va korrelyatsiya tahlillaridan foydalanish metodologiyasi taklif etilgan [3]. Ushbu yondashuvlar moliyaviy natijalarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ichki nazorat va audit tizimi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. R. Arens va J. Loebbecke ichki nazorat tizimining samaradorligi moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, audit ko'rsatkichlaridan analitik modellarda foydalanish zarurligini ko'rsatib o'tgan [4]. Shuningdek, P. Gujarati va D. Porter tomonidan ishlab chiqilgan ekonometrik modellashtirish metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilishda keng qo'llanilib, moliyaviy natijalarni baholashda axborot bazasining sifati hal qiluvchi omil ekanligi asoslab berilgan [5]. Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat va audit tizimi hamda ekonometrik modellashtirish masalalari alohida-alohida yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularni yagona empirik ma'lumotlar bazasi asosida kompleks tadqiq etish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalarni ekonometrik modellashtirish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda korxonalarda ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalarni ekonometrik modellashtirish uchun empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish metodologiyasi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida moliyaviy natijalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki nazorat va auditga oid asosiy ko'rsatkichlar tanlab olindi hamda ular moliyaviy hisobotlar va ichki audit hujjatlari asosida tizimlashtirildi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, taqqoslash, tizimli va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik va ekonometrik yondashuvlar qo'llanildi. Xususan, moliyaviy natijalar bilan ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda korrelyatsiya va ko'p omilli regressiya tahlili usullaridan foydalanildi. Ekonometrik modelni qurishda ma'lumotlarning ishonchliligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida diagnostik testlar (multikollinearlik, geteroskedastiklik va

avtokorrelyatsiya) amalga oshirildi. Olingan natijalar asosida ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarining moliyaviy natijalarga ta'siri miqdoriy baholanib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning ichki nazorat tizimi va audit mexanizmlarining samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. Moliyaviy natijalarning ishonchligi, daromad va xarajatlarning to'g'ri tan olinishi, aktivlar va majburiyatlarning haqqoniy baholanishi ichki nazorat va audit jarayonlari orqali ta'minlanadi. Shu sababli, ichki nazorat va audit natijalariga asoslangan empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirish korxona moliyaviy natijalarini chuqur tahlil qilish, risklarni aniqlash va ularning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvning muhimligi shundaki, an'anaviy moliyaviy hisobot ma'lumotlari ko'pincha yakuniy natijalarni aks ettiradi, biroq ushbu natijalarning shakllanish jarayonidagi ichki kamchiliklar va risk manbalarini to'liq ochib bermaydi. Ichki nazorat va audit asosida shakllantirilgan empirik baza esa moliyaviy natijalarning kelib chiqish omillarini, nazorat buzilishlari va audit testlari natijalarini tizimli ravishda aks ettirib, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

Ichki nazorat va audit asosida empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirishning mohiyati moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi nazorat, risk va audit ko'rsatkichlarini miqdoriy va sifat jihatidan integratsiyalashdan iboratdir. Bunda audit testlari, nazorat protseduralari, aniqlangan xatolar, nomuvofiqliklar va tuzatishlar moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bog'langan holda yagona axborot tizimida jamlanadi. Natijada, korxona moliyaviy natijalarini faqat buxgalteriya hisobotlari asosida emas, balki ularning shakllanish mexanizmlarini hisobga olgan holda empirik tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu yondashuv korxona faoliyatini "nazorat → audit → risk → moliyaviy natija" mantiqiy zanjiri asosida baholashga imkon beradi. Bu esa regressiya, panel va dinamik ekonometrik modellar uchun sifatli empirik ma'lumotlar bazasini yaratib, moliyaviy natijalar va ichki nazorat samaradorligi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bank tizimida risklarni boshqarish va moliyaviy natijalarni ishonchli baholash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kredit risklari, ECL (Expected Credit Loss), foiz va komissiya daromadlari, shuningdek, tartibga soluvchi talablar bilan bog'liq xatarlar bank barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ichki nazorat va audit testlari natijalari asosida shakllantirilgan empirik ma'lumotlar bazasi bank faoliyatidagi real risk manbalarini aniqlash va ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur yondashuvning mohiyati shundan iboratki, an'anaviy statistik ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ichki audit testlari, nazorat protseduralari, aniqlangan kamchiliklar, audit dalillari va risk indikatorlari yagona empirik ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilinadi. Bu esa bank risklarini faqat natijaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki ularning shakllanish mexanizmlari, nazorat sifati va boshqaruv samaradorligi orqali baholashga imkon yaratadi.

Ichki nazorat va audit testlariga asoslangan empirik baza bank faoliyatini econometrik modellashtirishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv yordamida risk omillari bilan moliyaviy natijalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi aniqlanadi, regressiya, panel va dinamik modellarda foydalanish uchun sifat jihatidan yangi o'zgaruvchilar shakllantiriladi. Natijada, modellarining aniqligi va tushuntirish qobiliyati sezilarli darajada oshadi.

Milliy iqtisodiyot va aholining moliyaviy farovonligi bilan chambarchas bog'liq. Risklarni o'z vaqtida aniqlash va ularning moliyaviy oqibatlarini empirik tahlil qilish resurslardan samarali foydalanish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va moliyaviy inqirozlar xavfini pasaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ichki nazorat va audit ma'lumotlariga asoslangan empirik baza bank tizimining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Korxonada "hisobot → risk → nazorat → audit → model → qaror" zanjiri asosida tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Bu tizimlilik korxonaning alohida operatsiyalari emas, balki butun biznes jarayonlari darajasida risklarni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ichki nazorat va audit funksiyalarining risk-boshqaruv va moliyaviy tahlil bilan integratsiyalashuvi ta'minlanadi.

Strategik nuqtayi nazardan, empirik ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi korxnaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini asoslashda muhim rol o'ynaydi. Audit testlari orqali aniqlangan zaif nuqtalar va risklar kelgusida kapital yetarliligi, kredit siyosati, raqamli transformatsiya va compliance strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa bank boshqaruvida proaktiv va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

Zamonaviy ilmiy konsepsiyalar — riskga yo'naltirilgan audit (Risk-Based Audit), ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-Driven Management), hamda bank risklarini econometrik modellashtirishning ilg'or usullari bilan uyg'unlashgan. Ichki nazorat va audit testlari natijalarini empirik econometrik tahlilga jalb etish ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy zamonaviyligini belgilaydi. Bu yondashuv an'anaviy moliyaviy tahlildan farqli ravishda, bank risklarini chuqurroq va tizimli baholash imkonini beradi.



Korxonada (bankda) schyot guruhlari kesimida risklar, ichki nazorat va audit testlarining tizimli tahlili

Hisobot satri → Schyot guruhi	Asosiy risk (misol)	Asosiy nazorat (key control)	Test (audit protsedura)	Dalil (evidence)	Davriylik / r
Kreditlar (gross) → Loans	Kredit berish vakolatsiz / limit buzilishi	Kredit komiteti tasdig'i + limit check	25 ta fayl: approval, limit, scoring tekshiruvi	Kredit fayli, scoring log	Oylik/chorak; Kredit depa
ECL (Allowance) → Stage 1/2/3	ECL modeli noto'g'ri parametrlar	Model governance: PD/LGD/EAD tasdiqlash	Model change log + back-testing	Model hisobotlari, log	Chorak; Finance
NPL/Klassifikatsiya	Kechikish noto'g'ri tasnif	DPD avtomatik trigger + manual override approval	DPD–klassifikatsiya mosligi (recon)	Core banking report	Oylik; Risk
Foiz daromadi	Foiz hisoblash xatosi	System rate table + 4-eyes change	Rate table o'zgarishlari + recalculation	Rate log, recalculation file	Oylik; Treas
Depozitlar	Accrual noto'g'ri	Accrual avtomatik + recon GL bilan	GL recon + sample recalculation	GL recon, depo report	Oylik; Finan
Komissiya daromadi	Daromad noto'g'ri tan olinishi	Tariflar katalogi + billing control	Tarif–billing mosligi	Tarif katalogi, billing	Oylik; Bizn
AML penalty xarajatlari	Jarima yashirilishi / noto'g'ri aks ettirish	Legal/compliance reporting + accounting tie-out	Legal case list ↔ GL tie-out	Legal reyestr, GL	Chorak; Compliance

Mazkur schyot guruhi korxona (bank) aktivlarining eng yuqori riskli qismi hisoblanadi. Kredit berishda vakolatsiz qarorlar yoki limitlarning buzilishi moliyaviy yo'qotishlar va muammoli aktivlar ulushining oshishiga olib keladi. Kredit komiteti tasdig'i va limit nazoratining mavjudligi risklarni oldindan cheklashga xizmat qiladi. Audit testlari orqali kredit fayllari, scoring natijalari va tasdiqlash hujjatlarining mosligi tekshirilib, kredit riskining real darajasi empirik baho lanadi.

ECL schyot guruhi moliyaviy hisobotlarda ehtimoliy zararlarni aks ettiruvchi muhim baholash ko'rsatkichidir. PD, LGD va EAD parametrlarining noto'g'ri belgilanishi foyda va kapital ko'rsatkichlarining sun'iy buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Model governance va back-testing audit testlari orqali ECL hisob-kitoblarining ishonchliligi baholanadi, bu esa risklarni empirik modellash uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

NPL / Klassifikatsiya kreditlarning kechikish darajasi va ularning to'g'ri tasniflanishi bank risk boshqaruvida hal qiluvchi ahamiyatga ega. DPD asosida avtomatik triggerlar va qo'lda o'zgartirishlar bo'yicha tasdiqlash mexanizmlari mavjud bo'lmasa, muammoli kreditlar yashirilishi mumkin. Audit protseduralari orqali DPD va klassifikatsiya mosligi tekshirilib, kredit portfeli sifati empirik ravishda baholanadi.

Foiz daromadlari korxona (bank)ning asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib, foiz stavkalarining noto'g'ri qo'llanilishi moliyaviy natijalarning buzilishiga olib keladi. System rate table va "four-eyes" nazorati foiz hisoblash xatolarini kamaytiradi. Audit testlari orqali foizlarni qayta hisoblash va stavkalar o'zgarishining hujjatlashtirilganligi tekshiriladi.

Depozitlar bo'yicha accruallarning noto'g'ri hisoblanishi majburiyatlar va foiz xarajatlarining noto'g'ri aks ettirilishiga sabab bo'ladi. Avtomatik accrual va GL bilan reconciliation mexanizmlari ichki nazoratning muhim elementi hisoblanadi. Audit dalillari orqali depozitlar bo'yicha hisob-kitoblarning to'liqligi va aniqligi empirik jihatdan tasdiqlanadi.

Komissiya daromadlarining noto'g'ri tan olinishi daromadlarning vaqt bo'yicha siljishiga va moliyaviy natijalarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Tariflar katalogi va billing nazorati ushbu riskni kamaytiradi. Audit testlari orqali tariflar va billing tizimi o'rtasidagi moslik baholanadi.

AML jarimalarining yashirilishi yoki noto'g'ri aks ettirilishi reputatsion va moliyaviy risklarni keskin oshiradi. Legal va compliance reporting'ning buxgalteriya hisobi bilan mosligi audit testlari orqali tekshiriladi. Ushbu schyot guruhi compliance risklarini empirik modellash uchun muhim indikator hisoblanadi.

Schyot guruhlari kesimida risklar, ichki nazorat va audit testlarini tizimli tahlil qilish korxona moliyaviy natijalarining shakllanish mexanizmlarini chuqur ochib berib, empirik ekonometrik modellash uchun sifatli va ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini yaratadi.

Kreditlar, ECL va NPL schyot guruhlari bo'yicha ichki nazorat va audit testlari samaradorligi oshishi bank (korxona) moliyaviy natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

$$\ln(\text{PROF}_t) = \alpha_0 + \alpha_1 \text{LOAN_RISK}_t + \alpha_2 \text{ECL_ERR}_t + \alpha_3 \text{NPL}_t + \alpha_4 \ln(\text{ASSET}_t) + \varepsilon_t$$

Bu yerda PROFt- sof foyda / ROA / ROE, LOAN_RISKt- kreditlar bo'yicha audit testlarida aniqlangan kamchiliklar ulushi, ECL_ERRt - modeli bo'yicha audit xatolari (PD/LGD/EAD) indeksi, NPLt-muammoli kreditlar ulushi, ASSETt-aktivlar hajmi

$$\alpha_1 < 0, \alpha_2 < 0, \alpha_3 < 0$$

Foiz daromadi, komissiya daromadi va AML penalty xarajatlari bo'yicha ichki nazorat va audit testlari kuchayishi daromadlarning barqarorligi va foydaning oshishiga olib keladi.

Agar foiz hisoblashda "rate table" va recalculation testlari xatosiz bo'lsa, komissiya daromadlari tarif-billing mosligi asosida tan olinsa, AML jarimalari yashirilmay, to'g'ri aks ettirilsa, unda daromadlarning sifati oshadi va kutilmagan xarajatlar kamayadi.

Ekonometrik tenglama:

$$\ln(\text{PROFt}) = \beta_0 + \beta_1 \text{INT_ERRt} + \beta_2 \text{FEE_ERRt} + \beta_3 \text{AML_COSTt} + \beta_4 \ln(\text{DEPOt}) + \text{ut}$$

Bu yerda INT_ERRt — foiz daromadi bo'yicha audit xatolari indeksi, FEE_ERRt — komissiya daromadlari bo'yicha noto'g'ri tan olish holatlari, AML_COSTt — AML penalty xarajatlari, DEPOt depozitlar hajmi

$$\beta_1 < 0, \beta_2 < 0, \beta_3 < 0, \beta_4 > 0$$

Mazkur gipotezalarda bankning aniq schyot guruhlar bo'yicha audit testlari natijalari miqdoriy ko'rsatkichlarga aylantirilib, ularning moliyaviy natijalarga ta'siri empirik ekonometrik modellar orqali baholanadi. Bu yondashuv audit dalillarini to'g'ridan-to'g'ri ekonometrik tahlilga jalb etishi bilan ilmiy yangilikka ega. Taklif etilgan empirik gipotezalar bankning kreditlar, ECL, NPL, foiz va komissiya daromadlari hamda compliance xarajatlari bo'yicha ichki nazorat va audit testlari samaradorligini moliyaviy natijalar bilan bevosita bog'lash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimi ko'rsatkichlari moliyaviy natijalarning shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni ilmiy asosda baholashda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi hamda uning samaradorligi, avvalo, shakllantirilgan empirik ma'lumotlar bazasining sifati va tizimlashtirilganligiga bog'liq. Maqolada ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalami ekonometrik modellashtirish uchun ma'lumotlar bazasini yaratishning asosiy bosqichlari belgilab berildi. Jumladan, axborot manbalarini tanlash, ma'lumotlarni tozalash, standartlashtirish va ekonometrik tahlilga tayyorlash jarayonlari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslandi. Bu yondashuv moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari korxonalarda ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur metodologik yondashuvdan foydalanish kelgusida moliyaviy natijalarni prognozlash va risklarni



boshqarish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardaev X.P. Ichki nazorat va audit nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 256 b
2. Jo'raev B.B. Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va moliyaviy natijalarni boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 214 b.
3. Vahobov A.V., Ibragimov Sh.Sh. Iqtisodiy tahlil va ekonometrik modellashtirish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2020. – 312 b.
4. Arens A.A., Loebbecke J.K. Auditing: An Integrated Approach. – New York: Pearson Education, 2016. – 912 p.
5. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. – New York: McGraw-Hill Education, 2018. – 922 p.